“Bahor’’ ansamblining Dehliga safari

Rajabova Mohlaroy,
“Xoreografiya jamoalari rahbari” ta’lim yo‘nalishi
1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: san’atshunoslik fanlari nomzodi,
dotsent **Po‘lat Tashkenbayev**

Annotatsiya: Ushbu maqolada "Bahor" ansamblining ijodiy safarlari, xalqaro madaniy aloqalarni rivojlantirishdagi o'rni hamda o'zbek milliy raqs san'atini dunyo miqyosida targ'ib etishdagi hissasi tahlil qilingan. Shuningdek, ansamblning turli mamlakatlardagi konsert dasturlari va ularning madaniy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bahor ansambli, ijodiy safarlar, milliy raqs, o'zbek madaniyati, xalqaro festival, san'at, madaniy diplomatiya.

Русский язык

Аннотация:

В данной статье рассматриваются творческие гастроли ансамбля «Бахор», их значение в развитии международных культурных связей, а также вклад коллектива в популяризацию узбекского национального танцевального искусства на мировой арене. Освещаются концертные программы ансамбля и их культурное значение.

Ключевые слова:
ансамбль «Бахор», творческие гастроли, национальный танец, узбекская культура, международный фестиваль, искусство, культурная дипломатия.

English

Abstract:

This article examines the creative tours of the Bahor Ensemble, their role in strengthening international cultural relations, and the ensemble's contribution to promoting Uzbek national dance art worldwide. It also highlights the ensemble's concert performances in different countries and their cultural significance.

Keywords:
Bahor Ensemble, creative tours, national dance, Uzbek culture, international festival, art, cultural diplomacy.

2025-yilning 18-22-fevral kunlari Hindistonning Dehli shahrida “SATTE-2025” Sharqiy Osiyo mintaqasining eng yirik va nufuzli turizm tadbiri bo‘lib o‘tdi. Ikki mingdan ziyod stendlarni birlashtirgan, bu gal esa dunyo bo‘ylab qirq mingdan ziyod ishtirokchilarni jalb eta olgan Janubiy Osiyoning eng yirik turizm yarmarkasi sayohat sanoatining eng yirik anjumanlaridan biri sifatida e’tirof etildi.

32 yildan buyon muntazam o‘tkazilayotgan xalqaro tadbirning ochilish marosimida, odatdagidek, ko‘plab yirik kompaniyalar rahbarlari, turizm tashkilotlari vakillari ishtirok etdi. Yuqori martabali mehmonlar “SATTE-2025” ko‘rgazmasining imkoniyati, kelgusi rejalar xususida fikr bildirdi. Yuqori darajada tashkil etilgan marosimda ilk bor mamlakatimiz delegatsiyasi rahbari - Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi raisi Umid Shodiyev so‘zga chiqib, jumladan, sayyohlik sohasidagi hamkorlik masalasiga to‘xtaldi:

-Ko‘p ming yillik aloqamiz, mushtarak tariximiz, boy umumiy madaniy merosimiz chambarchas bog‘liq. Xususan, turizm sohasidagi hamkorligimiz ham shu yaqin do‘stlikni tobora mustahkamlamoqda. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning bu ajoyib anjumandagi ishtiroki

hamkorlikni chuqurlashtirish, xalqimizni yanada jipslashtirish uchun yana bir imkoniyat – deb ta’kidladi Umid Shodiyev.

Turizm yarmarkasiga esa milliy qadryatlar va milliylik timsoli sifatida Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi ‘’Bahor’’ davlat raqs ansamblining ijodiy jamoasi ham ishtirok etib, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarini yaxshilovchi harakatlari orqali Hindiston aholisi qalbidan joy egallashga ham ulgurdi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Zero, bugungi kunda o‘zbek madaniyati va urf-odatlarini dunyoga tanitishda o‘zining raqslari, milliy libos va kuy-qo‘shiqlari orqali dunyo madaniyati tamaddunining beshigi ekanligimizni barchaga namoyon etib kelayotgan ushbu ansambl tarixi ham buyuk va o‘chmasdir.

Shunday qilib, bu galgi safar dasturida Farg‘ona, Xorazm, Buxoro raqs maktablariga mansub bo‘lgan raqslar jamlangan bo‘lib, ularni ansambl solist raqqosalari, mahoratli, o‘z kasbining usta sozanda va xonandalari ijro etishdi. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, Farg‘ona raqs maktabi asosida shakillangan ‘’Katta o‘yin’’, ‘’Pilla’’, ‘’Ko‘ngil taronasi’’, ‘’Mustahzod’’, ‘’Farg‘ona ruboiysi’’kabi o‘chmas tarix va xotiraga ega milliy raqslarimiz. Xorazm raqs maktabiga mansub bo‘lgan ‘’Lazgi’’ o‘zbeklarning shakillanish tarixini namoyon etadigan, yosh-u qarini birdek o‘ynatadigan raqslar. Buxoro raqs maktabiga esa ‘’Mavrigi’’ Buxoro tarixini ifodalovchi, milliy udum va an’analarimiz o‘chog‘i tarixida hikoya qiluvchi jonli raqslarimizni aytishimiz mumkin.

Bu raqslarning barchasi alohida raqs harakatlari, o‘zining qonun-qoidalari, yuz bilan ifodalanadigan qarashlarlari bilan ajralib turadi. Besh kun bo‘lib o‘tgan ushbu turizm doirasida turli mavzularda ma’lumot almashishlar va tajriba ortirish maqsadidagi davlat siyosatchilari, yuqori tashkilot rahbarlari o‘rtasidagi matbuot yig‘ilishlari bo‘lib o‘tdi. Bunday tadbirlardan ko‘zlangan maqsadlar o‘z tasdig‘ini topib, davlatlar o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy ahvolni yaxshilab, tajribalarni oshirmoqda.

Ushbu turdagi davlatlararo o‘tkaziladigan tadbirlarda Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi ‘’Bahor’’ davlat raqs ansambli ham muntazam ravishta qatnashib bizning milliy-qadryatlarimizni jahonga tarannum etishda, boy madaniy merosimizni tarnnum etishda eng buyuk xizmatlarini bajarmoqdalar. Oddiy misol tariqasida uzoq emas yaqin tarixga yuzlanadigan bo‘lsak, ansambl juda ko‘p ijodiy safarlarda bo‘ldi. Jumladan: Xitoy, Malaziya, Turkiya, Hindiston, Amerika Qo’shma SHtatlari, Fransiya, Janubiy Koreya, Tunis, Marokand, Qozog‘iston, Qirg‘iziston kabi ko‘plab mamlakatlar safarlarida bo‘ldi. U yerda esa o‘zining muhlislariga va ko‘plab tajrigalariga ega bo‘lib qaytmoqdalar.

Afsonaviy ‘’Bahor’’ nafaqat davlatlar kezib, ijodiy safarlarda bo‘ladi, balki O‘zbekistonga keladigan chet ellik san’at ixlosmandlarini ham qoyil qoldira oladigan chiqishlari bilan o‘ zining o‘rnini yillar davomida saqlab kelmoqdalar. Men ham o‘zbek yurti uchun shunday buyuk vazifaga bel bog‘lagan ansambl ijodkori ekanligimdan, san’atimizni saqlab qolayotgan jonkuyarlar safida ekanligimdan faxrlanaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Avdeyeva L.A O‘zbek milliy raqs san’ati tarixidan. – T.: 2001

2.Sagatov K., Muxammedova M. O‘zbekiston madaniyati va san’ati fidoyilari. -T.: Navruz, 2019

3. Muxammedova M.A Jahon va o‘zbek xoreografiya san’ati tarixi.-T.: Fan dunyosi, 2021